

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent shahrida jami 22 112,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	22 112,2	111,8
Bektemir	682,1	80,4
Mirzo Ulug'bek	1 377,3	102,8
Mirobod	2 059,4	103,4
Olmazor	1 226,1	120,4
Sergeli	1 024,4	133,1
Uchtepa	933,3	130,7
Chilonzor	1 460,8	139,0
Shayxontoxur	1 619,0	102,9
Yunusobod	2 529,1	108,6
Yakkasaroy	2 420,8	103,9
Yangi xayot	747,9	112,6
Yashnobod	1 645,6	133,8
Taqsimlanmagan hajim	4 386,5	112,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,8% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 119,0% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,3% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 23,0% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 18,0% ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 102,7% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	3 810,9	1 546,9	1 511,1
<i>o'sish sur'ati, %</i>	116,1	47,1	94,5
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	7 972,4	1 390,7	2 460,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	117,6	20,5	108,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	3 419,6	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	126,1	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 868,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 176,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,2 % ga kamayib, 31,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 115,0 % ni tashkil etgan holda 11 823,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,5 % ni yoki 3 419,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 126,1 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	6 868,9	11 823,7	3 419,6	101,3	115,0	106,6
Bektemir	107,2	544,5	30,4	21,4	186,7	141,3
Mirzo Ulug'bek	216,8	965,5	195,1	63,3	113,1	121,2
Mirobod	826,2	1 151,5	81,7	125,1	99,5	99,8
Olmazor	474,1	649,7	102,2	133,1	109,7	82,6
Sergeli	190,2	559,7	274,5	3,2 m.	101,8	112,0
Uchtepa	104,1	429,7	399,5	83,3	98,9	98,0
Chilonzor	668,0	695,2	97,6	199,9	106,1	96,4
Shayxontoxur	646,0	840,0	133,0	67,5	156,5	128,9
Yunusobod	1 316,1	1 040,9	172,0	94,5	123,0	118,1
Yakkasaroy	628,4	1 677,4	115,0	67,3	127,6	108,3
Yangihayot	167,2	500,3	80,3	138,8	113,1	125,5
Yashnobod	474,6	1 008,7	162,3	2,1 m.	110,0	93,6
Taqsimlanmagan hajim	1 049,9	1 760,6	1 575,9	135,8	104,4	104,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sergeli tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 3,2 m.), Yashnobod tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,1 m.), Chilonzor tumanida (199,9 %) va Yangihayot (2025-yilning mos davriga nisbatan 138,8 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Bektemir tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 186,7 %), Shayxontoxur tumani (156,5 %) va Yakkasaroy (127,6 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Tashkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

